

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
№DSc.03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**USMANOVA SABOHAT SOBID QIZI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARMATSEVTIKA SANOATI  
KORXONALARIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.03. – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of the Doctor of philosophy (PhD) dissertation abstract**

**Usmanova Sabohat Sobid qizi**

O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sanoati korxonalarida  
mahalliyashtirish jarayonlarini takomillashtirish 3

**Усманова Сабохат Собид кизи**

Совершенствование процессов локализации на предприятиях  
фармацевтической промышленности Республики Узбекистан.... 25

**Usmanova Sabohat**

Improvement of localization processes at the enterprises of the  
pharmaceutical industry of the Republic of Uzbekistan..... 48

**E'lon qilingan ishlar ro'yhati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
№DSc.03/30.12.2019.I.03.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**USMANOVA SABOHAT SOBID QIZI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARMATSEVTIKA SANOATI  
KORXONALARIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.03. – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Iqt1275 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tdtu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Allayeva Gulchehra Jalgasovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Kasimova Fotima Tulkunovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xotamov Ibodullo Sadulloyevich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.03.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. E-mail: tstu\_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahar, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32. E-mail: tstu\_info@tdtu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "\_\_\_\_\_" kuni tarqatildi.  
(2024 yil "\_\_\_\_\_" dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.A.Ikramov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**O.I.Begmullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
i.f.f.d. (PhD)

**M.A. Tillahodjayev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi  
i.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda aholi hayot sifatini oshirish, milliy xavfsizlikni ta'minlash, ijtimoiy muammolarni hal etish va mintaqaviy imkoniyatlardan oqilona foydalanishda farmatsevtika sanoatini mahalliyashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy ishlanmalarga 2020 yilda 190 milliard dollar sarflangan bo'lsa, 2026 yilga kelib, xarajatlar 230 milliard AQSh dollardan oshishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Bugungi kunda soha korxonalarini modernizatsiyalash, tayyor mahsulotlarni mahalliyashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish, samarali va bezarar mahsulotlar turlarini o'zlashtirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon farmatsevtika sanoatini mahalliyashtirish asosida sifatli va bezar dori vositalarini ishlab chiqarishni kengaytirish, ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor darajada tashkil qilinmoqda. Bu borada sanoat infratuzilmasini transformatsion rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishda kollaboratsiya asosida mahalliyashtirish darajasini oshirish, ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillarni baholash hamda ular yordamida mahalliy dori vositalarini ishlab chiqarishning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish kabi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida aholi salomatligini ta'minlash, hayot sifatini oshirish, ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, mahalliyashtirish darajasini keskin darajada oshirish kabi yo'nalishlarda keng qamrovli chora-tadbirlar tashkil etilmoqda. Aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog'iga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish maqsadida<sup>2</sup> davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu borada sohani rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, yuqori texnologiyali dori vositalarni mahalliyashtirishni o'zlashtirish, mahalliyashtirish jarayonini oshirishga sarmoyalarni keng jalb qilish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-sonli "2022-2026-yillarda respublika farmatsevtika sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-sonli "Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini

<sup>1</sup> Top 10 pharmaceutical companies based on R&D spending as revenue share in 2020 and 2026 <https://www.statista.com>

<sup>2</sup> "2022 — 2026 – yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.01.2022 yil PF-55-son

jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha ma'suliyatini yanada oshirish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-dekabrda 1009-sonli "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish, amalga oshirish va hisobot tizimini yuritish hamda ushbu jarayonda davlat boshqaruvi organlari va loyihalar tashabbuskorlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlarida hamda ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qilmoqda.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon iqtisodiy rivojlanishi va ishlab chiqarish resurslarining xalqaro migratsiyasi, "ishlab chiqarishni mahalliyashtirish" va "mahalliy mahsulotlar" masalalarini taniqli xorijiy olimlardan I.Tyunen, V.Laundxardt, A.Veber, A.Lyosh, V.Kristaller, B.Olin, E.Xeksher, M.Blaug, P.Krugman, G.Mulligan, S.Schmidt<sup>3</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida ko'rish mumkin.

MDH mamlakatlari olimlari A. Vazyanskiy, P. Kovalyev, A. Medved, V. Kondratiyev, Yu. Nikimov, A. Demin, A. Balashev, S. Asanova<sup>4</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida mahalliyashtirishning makroiqtisodiy jihatlari

---

<sup>3</sup>Тюнен И.Г. // Тихоходки - Ульяново. - М.: Советская энциклопедия, 1977. - (Большая советская энциклопедия: в 30 т. / гл. ред. А. М. Прохоров; 1969-1978, т. 26). Launhardt W. Theorie der Kommerziellen Trassierung der Verkehrswege. Zeitschrift des Hannoverschen Architekten- und Ingenieurvereins // Hannover. - 1872. - Т. 18. - С. 522. Alfred Weber Alfred Weber's theory of location of industries. The university of Chicago press, Chicago, Illinois. Лёш А. Пространственная организация хозяйства. М.: Наука, 2007. 664 с. ISBN 978-5-02-035367-1 (первое издание -Лёш А. Географическое размещение хозяйств. М.: Изд-во иностр. лит., 1959. 455 с) (нем. Die räumliche Ordnung der Wirtschaft: eine Untersuchung über Standort, Wirtschaftsgebiete und internationalem Handel. Jena: Fischer, 1940). Christaller W. Die zentralen Orte in Suddeutschland. - Jene: Gustav Fischer, 1933. Ohlin B. The international allocation of economic activity. Proceedings of a Nobel symposium. London 1977. Э.Хекшер Влияние внешней торговли на распределение дохода/Под ред. А.П.Киреева – Веки экономической мысли. Т. 6. Блауг М. Теория размещения промышленных предприятий Вебера // Экономическая мысль в ретроспективе = Economic Theory in Retrospect. - М.: Дело, 1994. - С. 578-580. - XVII, 627 с. - ISBN 5-86461-151-4. Krugman, P. y Venables A.J. (1996). Integration, Specialization and Adjustment. European Economic Review, 40, 959-967. Mulligan, G.F. y C. Schmidt (2005). A Note on Localization and Specialization. Growth and Change, Vol. 36 (4), 565-576.

<sup>4</sup>Вазьянский А.М. Локализация производства как проблема современного менеджмента. По специальности 08.00.05-Экономика и управление народным хозяйством, автореферат дисс. к.э.н. 08.00.05. Нижний Новгород 2007. Ковалев П.А., Медведь А.А. Требования локализации производства как способ привлечения прямых иностранных инвестиций в российское автомобилестроение, 2012, журнал Экономика и управления, - С. 21-24. Кондратьев В.Б. Локализация производства как инструмент модернизации. Перспективы. Электронный журнал, 2016. Никинов Ю. Импортзамещающая политика и увеличение конкурентоспособности экономики России (Материалы круглого стола). Москва, 2004 г. – С. 3; Демин А. Государственная политика в области импортзамещения. Москва, 2004 г. – С. 15. Балашев А. Формирование механизма устойчивого развития фармацевтической отрасли. Автореферат дисс. к.э.н. 08.00.05. Санкт-Петербург 2012. Асанова С.

o'rganilgan va mahalliyashtirishga import o'rnini bosish, investitsiyalarni jalb qilish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash omili sifatida ilmiy yondashilgan.

O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning nazariy-uslubiy asoslari S.G'ulomov, Q.Abduraxmonov, T.Ahmedov, A.Bekmurodov, B.Salimov, M.Tursunxo'jayev, N.Xaydarov, A.Burxonov, Z.Xusanov, B.Berkinov, Sh.Egamberdiev<sup>5</sup> kabi mamlakatimiz olimlarining ishlarida keng ko'rib chiqilgan.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy izlanishlari, ilmiy-amaliy va nazariy-uslubiy manba bo'lib xizmat qilsa-da, zamonaviy yondashuvlar asosida respublikamiz farmatsevtika sanoati korxonalarida mahalliyashtirish, eksportga yo'naltirish darajasini oshirish, shuningdek, ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda sanoatni innovatsion rivojlantirish jarayonlari yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur muammolarning dolzarbligi va yetarli darajada o'rganilmaganligi ushbu tadqiqot zaruratini belgilab berdi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №F.1.100 "Investitsiya salohiyati nazariyasi va uni shakllantirish mexanizmlarining ilmiy asoslarini ishlab chiqarish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** farmatsevtika sanoati korxonalarida mahalliyashtirish jarayonini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

---

Формирование и реализация процессов импортозамещения в инновационной экономике. Автореферат дисс. к.э.н. 08.00.05. Самара 2021. Толстопятенко М. Инновационное развитие фармацевтической промышленности на основе формирования фарма-медицинских кластеров. Автореферат к.э.н. 08.00.05. Москва 2009

<sup>5</sup> Гулямов С. С., Шермухамедов А. Т. Модель развития Узбекистана: интеллектуального потенциала в гражданском обществе // Научно-методический электронный журнал «Концепт». –2017.–Т. 14. – С. 77-82. – URL: <http://e-koncept.ru/2017/770628.htm>; Абдурахманов К. Узбекистан на пути к инновационному развитию. Монография. — Т.: Ташкентский филиал РЭУ им. Г. В. Плеханова, 2018. – С. 136.; Ахмедов Т.М., Хасанджанов К.А., Хакимов Н.Х. Региональная экономика: Учебное пособие. – М.: изд. РЭА им. Г.В.Плеханова. 2006. – С. 231; Бекмуродов А.Ш., Янг Сон Бе. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. – Т.: ТГЭУ, 2006. – С. 112.; Salimov V. Hududlar va sanoat sohasi bo'yicha kichik biznesning rivojlanish dinamikasi va xususiyatlari. // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019. – В. 1-7; Турсунходжаев М. Развитие малого бизнеса в условиях глобализации. 2021. Учебное пособие. Экономика труда, 2010, филиал ГоуВОб Российский экономический университет им. Г.В. Плеханов в городе Ташкенте; Haydarov N.X. Ishlab chiqarish korxonalarini mahalliyashtirishda investitsiyalarning o'rni. «Milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi. 2013 yil 15 noyabr Tezislar to'plami. – В.13-18. A.Burxonov Sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash strategiyasi. Monografiya. – Toshkent: «Fan», 2009. – В. 216; Хошимова Н. Антикризисное управление предприятием. Учебное пособие. – Ташкент: «Tafakkur qanoti», 2016. – С. 281; Xusanov Z.I. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning mintaqaviy xususiyatlari (Navoiy viloyati misolida) 08.00.12-Mintaqa iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi. O'zbekiston Milliy universiteti. Toshkent - 2012.; Egamberdiyev Sh.S. Sanoat tarmoqlarida mahalliyashtirishdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. 08.00.03-Sanoat iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent - 2020.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, ishda quyidagi asosiy vazifalar yechimi amalga oshirildi:

farmatsevtika sanoatini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish vositasi sifatida mahalliyashtirish jarayonlarining zamonaviy tushunchalari, nazariy va uslubiy yondashuvlarini tahlil qilish;

farmatsevtika sanoatida mahalliyashtirish jarayonlarini shakllantirish va joriy etishning samaradorligini baholash;

farmatsevtika sanoatida mahalliyashtirish jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va ularni tizimlashtirish, xorijiy amaliyotdan foydalanish;

farmatsevtika sanoati uchun tashqi innovatsiyalar modelini tahlil qilish, iqtisodiy rag'batlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, shuningdek, natijalarni prognozlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tarkibiga kiruvchi farmatsevtika korxonalari, jumladan "Remedy Group" MChJ QK tashkil etadi.

**Tadqiqot predmeti** yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahalliy dori vositalari va tibbiy mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi farmatsevtika korxonalarining iqtisodiy aloqalaridir.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida umumlashtirish va statistik guruhlash, qiyosiy va dinamik tahlil, ekonometrik modellashtirish va ekspert baholash kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish maqsadida ishlab chiqarish leverajiga asoslangan innovatsion biznes model taklif qilingan;

farmatsevtika sanoatida mahalliyashtirishni rivojlantirish maqsadida kollaboratsiya (outsorsing, innovatsion markazlar va kraudsorsing) asosida mahalliyashtirish darajasini oshirishga qaratilgan yondashuv takomillashtirilgan;

farmatsevtika sanoati infratuzilmasini transformatsion rivojlantirish maqsadida yuqori texnologiyali dori vositalarini ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan;

"Remedy Group" MChJ QKda ishlab chiqarilayotgan mahalliy dori vositalari hajmiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida 2028-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, statistik ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilib, natijalarning vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning nazariy jihatdan asoslanganligi, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar farmatsevtika korxonalarida mahalliyashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, va soha yoʻnalishidagi ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan sohani rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, shuningdek, oliy taʼlim tizimida darslik va oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar tayyorlashda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farmatsevtika sanoati korxonalarida mahalliyashtirish jarayonini takomillashtirish boʻyicha olingan ilmiy natijalarga asosan:

farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarish harajatlarini minimizatsiyalash maqsadida ishlab chiqarish levereji asosida innovatsion biznes-model “Remedy group” MCHJ QK faoliyatiga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligining 2023 yil 21 dekabrda 05-38/29494-sonli maʼlumotnomasi; “Remedy group” MCHJ QK 2022 yil 2 dekabr 2081-sonli maʼlumotnomasi). Ushbu modelni joriy etish natijasida “Remedy group” MCHJ QKda ishlab chiqarish harajatlari 2% ga qisqargan;

farmatsevtika sanoatida mahalliyashtirish jarayonini rivojlantirish maqsadida kollaboratsiya (outsourcing, innovatsion markazlar va crowdsourcing) asosida mahalliyashtirish darajasini oshirishga qaratilgan yondashuvni takomillashtirish boʻyicha taklif “Remedy group” MCHJ QK faoliyatiga joriy etilgan (Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligining 2023 yil 21 dekabrda 05-38/29494-sonli maʼlumotnomasi; “Remedy group” MCHJ QK 2022 yil 2 dekabr 2081-sonli maʼlumotnomasi). Ushbu taklifni qoʻllash natijasida “Remedy group” MCHJ QKda ishlab chiqarish hajmi 5%ga oshirdi;

farmatsevtika sanoati infratuzilmasini transformatsion rivojlantirish maqsadida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mahalliyashtirish jarayonining takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi “Remedy group” MCHJ QK faoliyatiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligining 2023 yil 21 dekabrda 05-38/29494-sonli maʼlumotnomasi; “Remedy group” MCHJ QK 2022 yil 2 dekabr 2081-sonli maʼlumotnomasi). Mazkur mexanizmni joriy etish natijasida “Remedy group” MCHJ QK innovatsion faoliyat samaradorligi darajasini 7% oshirish imkonini bergan;

“Remedy group” MCHJ QKda ishlab chiqarilayotgan mahalliy dori vositalarini ishlab chiqarishga taʼsir etuvchi omillarning modeli “Remedy group” MCHJ QKda 2028-yilgacha prognoz koʻrsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan. Natijada ishlab chiqarish hajmini 2028 yilga kelib 25%ga oshishi asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi va tasdiqlandi.

**Natijalarning e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 12 ta ilmiy maqola chop etilgan. Ulardan 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan jurnallarda, shu jumladan 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibiy qismi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 127 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek tadqiqot ob’ekti va predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganlik holati hamda nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat korxonalarida mahalliyashtirish jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mahalliyashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va nazariy jihatlari, farmatsevtika korxonalarini faoliyatida mahalliyashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar, shuningdek, xalqaro amaliyot va uning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi o‘rganilgan.

Mahalliyashtirish iqtisodiy hodisa sifatida uzoq vaqtdan beri mavjud bo‘lib, mahsulot va xizmatlarning mahalliy bozorga va muayyan hududga moslashishini ta’minlaydi. Turli manbalarda mahalliyashtirish tushunchasiga turlicha ta’riflar berilgan, xususan, mahalliyashtirish – biror narsani ma’lum bir joyga belgilash; harakat joyini cheklash, har qanday hodisa, jarayonning tarqalishini anglatadi.

Mahalliyashtirish jarayoni iqtisodiy o‘rishga xizmat qiladi va mamlakat ichki sanoat salohiyatini oshirish imkonini beradi. Uzoq muddatli istiqbolda mahalliyashtirish davlatga o‘z aholisining o‘z borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun avtonom, o‘zini-o‘zi ta’minlash va o‘z-o‘ziga tayanish imkonini beradi. Mahalliy sanoatni tashkil etish va mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga turtki bo‘lib, mintaqaviy va global raqobatni rag‘batlantirish, shuningdek, iqtisodiyotning global mavqeiga ta’sir ko‘rsatish va mustahkamlashini ta’minlaydi. Farmatsevtika sanoati kabi ixtisoslashgan tarmoqlarning rivojlanishi va o‘rishi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy etish uchun ichki imkoniyat va inson resurslaridan foydalanish imkonini beradi.


Farmatsevtika sanoatini mahalliyashtirish mahalliy ishlab chiqarishni va farmatsevtika qiymat zanjirining turli jihatlarini ma’lum bir hududda konsentratsiyalashni nazarda tutadi. Mahalliy ishlab chiqarish ichki ehtiyojlarni

qondiradi va barqaror iqtisodiyotning asosiy ustuni bo‘lmish milliy sog‘liqni saqlash tizimi imkoniyatlarini kengaytiradi. Mahalliyashtirish jarayonlarini joriy qilish asosan o‘zgaruvchan bozor dinamikasiga moslashish va o‘zini o‘zi ta‘minlash va iqtisodiy barqarorlikka erishish istagi bilan bog‘liq.

COVID-19 pandemiyasi global farmatsevtika sanoati faoliyatida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Boshqa har qanday soha singari, farmatsevtika sanoati ham pandemiyadan aziyat chekdi va COVID-19 dan tiklanish yo‘lida paradigma o‘zgarishini boshdan kechirmoqda. Ushbu qiyin davrlar mamlakatning global farmatsevtika bozorlariga, zarur dori-darmonlar va sog‘liqni saqlash mahsulotlari importiga o‘ta qaramligini ko‘rsatdi.

Zamonaviy mahalliyashtirishning asosiy yo‘nalishi xomashyoga emas, balki xomashyoni chuqur qayta ishlashga yo‘naltirilgan yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarishdan iborat. Bu boradagi mahalliyashtirishning asosiy vositalari mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy muhitni yaxshilash, O‘zbekistonning biznes yuritishdagi jozibadorligini oshirishdan iborat.

Farmatsevtika sanoatida mahalliyashtirish jarayonlari farmatsevtika mahsulotlarining qiymat zanjirini yaratish (1-rasm) jarayonini qamrab olishi kerak, bu esa tibbiy mahsulotni ishlab chiqarishdan boshlanib, uni tibbiy nazorat ostida bo‘lgan bemorga yetkazib berish bilan yakunlanadigan tadbirlar majmui sifatida belgilanadi. Mahalliyashtirish modeli farmatsevtika qiymat zanjirini yaratishning turli bosqichlarida qo‘llaniladi. Ushbu muhim qadamlar mahsulotni ishlab chiqarish, yetkazib berish zanjiri orqali tarqatish va iste‘molchiga yetkazishdan iboratdir.



**1-rasm. Farmatsevtika sanoatida qiymat zanjirini yaratilishi<sup>6</sup>**

Dissertatsiya ishida muallif ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo‘yicha o‘z talqinini shakllantiradi. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish – ishlab chiqarish texnologiyasini xorijda sotib olish va uni korxonalarda joriy etish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega yuqori texnologiyali dori vositalari va tibbiy buyumlarni

<sup>6</sup> Muallif ishlanmasi

nafaqat mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarish, balki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy korxonalarini jalb qilish yo'li bilan mamlakatimizda xorijiy kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarishni kengaytirishdir.

Mahalliyashtirish strategiyasi farmatsevtika korxonalarida investitsiya resurslarini samarali boshqarish, resurs bazasini yaxshilash va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.


Mahalliyashtirishning zamonaviy konsepsiyasi mahalliy mahsulotlarning nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham raqobatbardoshligini oshirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi xomashyo eksporti emas, balki yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishdir.

Farmatsevtika sanoati yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganligi sababli mahalliyashtirish jarayonlari davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadi va katta kapital qo'yilmalarni talab etadi. Mahalliyashtirish jarayonlarini shakllantirish va amalga oshirishga ta'sir qiluvchi vositalar har xil bo'lishi mumkin.

Farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish maqsadida biz barcha omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish leverejiga asoslangan innovatsion biznes modelini taklif qildik (2-rasm).

Farmatsevtika sanoatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishga yangi innovatsion biznes modelini joriy etish orqali erishiladi. Ushbu innovatsion biznes model mamlakatimiz farmatsevtika korxonalarini faoliyatining yangi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Bular akademik hamkorlik, innovatsion markazlar, loyihalarga qo'shma investitsiyalar kiritish, diversifikatsiya, innovatsion markazlar, farmatsevtika sohasida kraudsorsing va autsorsingdir.

Farmatsevtika sanoati uchun innovatsion biznes modellar aholining dori vositalariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda nihoyatda qo'l keladi. Farmatsevtika sohasida innovatsion yechimlar jamiyatga foyda keltirishi mumkin. Natijada, o'z faoliyatini innovatsiyalarga moslashtirgan farmatsevtika kompaniyalari zamonaviy sog'liqni saqlash ehtiyojlarini qondirish bilan birga, moliyaviy daromadlarni ham ko'paytirmoqda. Moliyaviy komponent korxonalariga uzoq muddat o'z faoliyatini davom ettirishga va ishlab chiqarishni "mahalliyashtirishga" yordam beradigan katalizator hisoblanadi. Yetakchi o'rinni egallamoqchi bo'lgan farmatsevtika korxonalarini bozorda kuchayib borayotgan raqobat, innovatsiyalar va yuqori ilmiy salohiyatda ustunlikka ega bo'lishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu jihat yaqin kelajakda korxonalarini o'z faoliyatlarini innovatsion biznes modeliga o'zgartirishga majbur qiladi. Ushbu modelni qo'llash ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishga imkon beradi.



## **2-rasm. Ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish uchun ishlab chiqarish leverijiga asoslangan innovatsion biznes model <sup>7</sup>**

Farmatsevtika tarmog'ini mahalliyashtirish davlat dasturi doirasida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida ilg'or xalqaro tajribaga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dissertatsiya ishida qisqa vaqt ichida farmatsevtika sanoatini mahalliyashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan Xitoy, Hindiston, Braziliya, Rossiya kabi mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan farmatsevtika tarmog'ini 2024-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasiga ko'ra, sohaga xorijiy sarmoya va ilg'or xorijiy texnologiya va tajribalarni jalb etgan holda mahalliy o'simlik xomashyosi asosida substansiyalar ishlab chiqarishni tashkil etish zarur. Farmatsevtika sanoatida mahalliyashtirish jarayonlarini joriy etish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish orqali O'zbekiston Respublikasida mahalliyashtirish jarayonlarini shakllantirish va amalga oshirish vositalarini ishlab chiqish mumkin. Birinchidan, mamlakatimizda ham mahalliy, ham xorijiy korxonalar uchun qulay sarmoyaviy muhitni yaratish zarur. Innovatsion, yuqori texnologiyali dori vositalarini ishlab chiqarishga investitsiya subsidiyalari berish, intellektual mulkni himoya qilish, imtiyozlar va preferensiyalar berish, masalan, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlari berish, butun dunyodan sohaga yuqori malakali mutaxassislarni

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi

jalb qilish, yangi, original dori vositalari va vaksinalarni moliyalashtirishni ta'minlashni yo'lga qo'yishni ushbu jarayonlarni jadallashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sanoatida mahalliyashtirish jarayonlarini takomillashtirishda ko'plab rivojlangan davlatlar, xususan, yuqoridagi davlatlar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Xorijiy tajribadan foydalanish aholini sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash imkonini bermoqda. Shuningdek, o'zaro manfaatli shartlarda import va eksportni tashkil etish imkonini yaratmoqda.

Ushbu sohada qulay sarmoyaviy muhit, mustahkam me'yoriy-huquqiy baza, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan nafaqat mahalliy, balki tashqi bozorga ham xalqaro standartlar asosida dori vositalari ishlab chiqaruvchi mahalliy va xorijiy korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Tadqiqot ishining **“O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sanoatini mahalliyashtirish jarayonlari tahlili”** nomli ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sanoati rivojlanishining hozirgi holati, mahalliyashtirish jarayonlarining farmatsevtika sanoatining innovatsion faoliyatiga ta'siri, “Remedy Group” MChJ QKda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning iqtisodiy samaradorligiga baho berilgan.

Raqobatbardosh mahsulotlar hajmini oshirish uchun mahalliy xomashyo va ishlab chiqarish omillaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasida sanoatni rivojlantirishga qaratilgan mahalliyashtirish jarayonlarining asosini tashkil etadi. Respublikada yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini shakllantirish va amalga oshirish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan, xususan, normativ-huquqiy baza mavjud.

Respublikada 2006 yildan buyon tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan siyosat natijasida umumiy qiymati 5,5 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 2,8 mingdan ortiq mahalliyashtirish loyihasi amalga oshirildi, mahalliyashtirish bo'yicha 2,8 mingdan ortiq loyiha amalga oshirilgan bo'lib, 4,8 mingdan ortiq yangi turdagi mahsulotlar o'zlashtirildi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining umumiy hajmida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ulushi 30 foizdan ziyodni tashkil etadi.<sup>8</sup>


Farmatsevtika sanoati aholi salomatligining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, demografiya va ijtimoiy vaziyatga bevosita ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda, mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston farmatsevtika tarmog'i milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. O'zbekiston farmatsevtika bozori MDHda Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi. Bu o'sish dinamikasi

---

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini shakllantirish, amalga oshirish va hisobot tizimini yuritish hamda ushbu jarayonda davlat boshqaruvi organlari va loyihalar tashabbuskorlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori 2019 yil 18 dekabrda 1009-son

bo'yicha MDHda eng tez rivojlanayotgan bozorlardan biri (yiliga 8-10%). O'zbekiston bozori jadal o'sib bormoqda, farmatsevtika bozorining umumiy hajmi allaqachon 1,4 milliard dollardan oshgan<sup>9</sup>. 3-rasmga ko'ra, farmatsevtika sanoatining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushining o'sish dinamikasini aniq kuzatish mumkin. Masalan, 2012-yilda farmatsevtika sanoatining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 0,1 foizni tashkil etib, 127,2 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 0,2 foizga o'sish kuzatildi, bu qiymat bo'yicha 565,9 milliard so'mni tashkil etdi. 2016-yildan buyon ishlab chiqaruvchilarga taqdim etilgan sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, imtiyoz va preferensiyalar, qulay investitsiya muhitini yaratish tufayli yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 0,3 foizga oshib, 2049,4 milliard so'mni tashkil etdi.



**3-rasm. Farmatsevtika sanoatining O'zbekiston Respublikasi YaIMdagi ulushi (milliard so'm)**

Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga barqaror oshib bormoqda. Masalan, 2011-yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 278,3 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 10 yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmi 3903,0 milliard so'mga oshgan. Bu esa, o'z navbatida, soha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi.



**4-rasm. Asosiy farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

<sup>9</sup> Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi ma'lumoti

Farmatsevtika sanoati iqtisodiyotning strategik muhim tarmog‘i bo‘lganligi sababli, sanoat quvvatlarini modernizatsiya qilish, innovatsion rivojlanish, tayyor mahsulotlarni mahalliyashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish, farmatsevtika mahsulotlarining yangi turlarini o‘zlashtirish, farmatsevtika mahsulotlari sifatini xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlash, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni sanoatga jalb etishga davlat tomonidan katta e‘tibor qaratilmoqda.

“Remedy Group” MChJ QK o‘zbek-ingliz qo‘shma korxonasi bo‘lib, respublikada dori vositalari ishlab chiqarish hamda eksport faoliyati bilan shug‘ullanadi.

“Remedy Group” MChJ respublika farmatsevtika bozorida yetakchi o‘rinni egallaydi. Korxonaning iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan korxonalar xarajatlari ham oshadi.

Minimal xarajat bilan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish orqali maksimal daromad olish tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligi foyda ko‘rsatkichlari orqali ifodalanadi.

Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatida mahalliyashtirish muhim o‘rin tutadi. Sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatiga mahalliyashtirishdan tashqari inson kapitali, mahalliy xomashyo, texnologik resurslarning mavjudligi, me‘yoriy-huquqiy baza kabi omillar ham ta‘sir ko‘rsatadi va innovatsiyalarning asosiy dvigateli ilmiy markazlar hisoblanadi. Farmatsevtika korxonalarida innovatsion faoliyat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilmiy-tadqiqot xarajatlarning umumiy hajmiga bog‘liq.

Yangi g‘oyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash biznesga o‘z jarayonlarini takomillashtirish, bozorga yangi va takomillashtirilgan dori vositalarini olib chiqish va eng muhimi, uning rentabelligini oshirish imkonini berish uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot faqat ikkinchi darajali ma‘lumotlarga asoslanadi. Tahlil qilish uchun quyidagi ko‘rsatkichlar tanlab olindi: ishlab chiqarish hajmi, respublika korxonalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari hajmi, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar xarajatlari, reklama va marketing xarajatlari, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari, innovatsion jarayonga jalb qilingan xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari. Tadqiqot uchun biz innovatsiyalarni joriy etish va original mahalliy dori vositalarini ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga ma‘lum xarajatlarni talab qiladigan respublikaning 3 ta yirik farmatsevtika korxonasini tanladik. Biz o‘rganish davrini 2008 yildan 2019 yilgacha tanladik.

“Innovatsiya” va “mahalliyashtirish” o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun biz quyidagi o‘zgaruvchilardan foydalandik: natijaviy ko‘rsatkich (Y) – mahalliy dori vositalari ishlab chiqarish hajmi, ta‘sir etuvchi omillar esa – respublika tashkilotlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar hajmi ( X1), respublikada texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqarish xarajatlari (X2), korxonalar

tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari (X3), korxonaning zamonaviy texnologiyalarga xarajatlari (X4) va korxonaning innovatsion jarayonga jalb qilingan xodimlarning malakasini oshirishga xarajatlari (X5).

O'zgaruvchilarni nomlagandan so'ng, biz yuqorida muhokama qilingan natijaviy va mustaqil o'zgaruvchilarni o'z ichiga olgan quyidagi modelni quramiz:

$$V_{oLP} = \beta_0 + \beta_1 RRDC + \beta_2 TIC + \beta_3 IPC + \beta_4 MTC + \beta_5 LEC + e$$

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun biz quyidagi statistik vositalar va tahlil usullaridan foydalandik:

Ta'riflovchi statistika

Korrelyatsiya matritsasi

Eng kichik kvadratlar usuli yordamida regressiya tahlili.

Biz ma'lumotlarni tahlil qilish uchun STATA 14.2 dasturidan foydalandik.

**1-jadval**

**Tadqiqotda foydalanilgan o'zgaruvchilar tavsifi<sup>10</sup>**

No	O'zgaruvi kodi	O'zgaruvchi belgisi	O'zgaruvchi tavsifi
1	Y	$V_{oLP}$	Mahalliyashtirilgan dori vositalarini ishlab chiqarish hajmi
2	$X_1$	RRDC	Respublika tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi
3	$X_2$	TIC	Respublikada texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqarish xarajatlari
4	$X_3$	IPC	Korxonadan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari
5	$X_4$	MTC	Zamonaviy texnologiyalar uchun korxonadan xarajatlari
6	$X_5$	LEC	Kompaniyaning innovatsion jarayonga jalb qilingan xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari

Ushbu jadvalda biz Stata 14 dasturida ishlash uchun o'zgaruvchilarni kodlaymiz. Jadvalga ko'ra,  $V_{oLP}$  – mahalliyashtirilgan dori vositalarini ishlab chiqarish hajmi, RRDC – Respublika tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hajmi, TIC – respublikada texnologik innovatsiyalarni ishlab chiqarish xarajatlari, IPC – korxonadan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari, MTC – zamonaviy texnologiyalar uchun korxonadan xarajatlari, LEC – kompaniyaning innovatsion jarayonga jalb qilingan xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari.

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi

**2-jadval**  
**O'zgaruvchilarning tavsiflovchi statistikasi<sup>11</sup>**

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
V <sub>o</sub> LP	36	0,8834995	0,5247852	0,26	2,95
RRDC	36	1,87562	0,5678424	0,69	3,88
TIC	36	0,73652	0,3025412	0,22	1,39
IPC	36	0,32485	0,2254785	0,06	1,07
MTC	36	0,596235	0,6236523	0,23	5,79

Tadqiqotimizda biz ma'lumotlarning asosiy xususiyatlarini tavsiflash uchun tavsiflovchi statistikadan foydalandik. Ta'riflovchi statistik ma'lumotlardan foydalanib, biz namuna va chora-tadbirlar haqida oddiy xulosalarni bilib olamiz. Ushbu jadvalda 3 ta korxonada 12 yil davomida (2008 yildan 2019 yilgacha) o'tkazilgan 36 ta kuzatuvning to'liq tavsifi keltirilgan.

Endi, juft korrelyatsiya koeffitsientidan foydalanib, biz qolgan ikkita ko'rsatkich qiymatlaridagi o'zgarishlar qanchalik bog'liqligini hisoblaymiz. Bu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish va bu matritsa bizning ma'lumotlar to'plamimizda qisman korrelyatsiya mavjudligini bilishga yordam beradi. Regressiya tahlilini o'tkazishdan oldin biz ketma-ket korrelyatsiya yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun ikki o'zgaruvchan korrelyatsiya matritsasidan ekonometrik test sifatida foydalanamiz.

**3-jadval**  
**Juftlik korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi<sup>12</sup>**

	LN Y	X1	X2	X3	X4	X5
LN Y	1					
X1	0,961096	1				
X2	0,623218	0,750782016	1			
X3	0,861968	0,915568696	0,852859344	1		
X4	0,913319	0,954452431	0,697456786	0,916845256	1	
X5	0,913008	0,951997482	0,689631045	0,919574283	0,999403061	1

Dastlabki ekonometrik tahlilni o'tkazishdan oldin biz berilgan statistik ko'rsatkichlarning logarifmini olamiz. Chunki logarifmik qiymatlarda iqtisodiy ko'rsatkichlarning davriy tebranishlari kamayadi va ular chiziqli qiymatlarga yaqin qiymatlarni aks ettiradi. Yuqorida aytib o'tilganidek, biz mahalliy dori vositalarini ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillarning logarifmik qiymatlarini ko'p faktorli regressiya tahlilini o'tkazamiz. Ushbu ekonometrik tahlil uchun qiymatlar eng kichik kvadratlar usuli yordamida olingan.

<sup>11</sup> Stata Software14.2 da muallif ishlanmasi

